

YOSHLAR VA AXBOROT XURUJLARI

Xidirov Murodjon Turg'unboyevich

Namangan viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, Uchqo'rg'on tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

Annatotsiya: *Ushbu maqolada axborot xurujlarining yoshlar ma'naviyatiga va dunyoqarashiga ta'siri tahlil qilinadi. Axborot xurujlarining shakllari, ularning yoshlar ongiga qanday ta'sir qilishi hamda noto'g'ri ma'lumotlarning tarqalish sabablari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, yoshlarning bu jarayonga moyilligi va uning oldini olish yo'llari haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *axborot, qurol, ma'naviy tahlil, yoshlar, ong*

Abstract: *This article analyzes the impact of information attacks on the spirituality and worldview of young people. Forms of information attacks, how they affect the minds of young people, and the reasons for the spread of false information are considered. Also, young people's tendency to this process and ways to prevent it are discussed.*

Key words: *information, weapons, moral analysis, youth, consciousness*

Аннотация: *В данной статье анализируется влияние информационных атак на духовность и мировоззрение молодежи. Рассмотрены формы информационных атак, как они влияют на сознание молодежи, а также причины распространения ложной информации. Также обсуждается склонность молодежи к этому процессу и способы его предотвращения.*

Ключевые слова: *информация, оружие, моральный анализ, молодежь, сознание.*

Zamonaviy dunyoda axborot qudratli qurolga aylangan. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida insonlar axborotni tez va oson qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Biroq, bu qulaylik bilan birga turli axborot xurujlari ham kuchayib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar ushbu jarayondan eng ko'p ta'sirlanadigan qatlam hisoblanadi. To'g'ri tahlil qilinmagan, yolg'on yoki manipulyativ ma'lumotlar yoshlarning dunyoqarashiga, ma'naviyatiga va hatto kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, axborot xurujlarining mohiyati va ulardan himoyalalanish yo'llarini chuqur o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

Maqolamizning asosiy qismiga o'tishdan oldin, “Axborot xuruji” nima, u yoshlarga qanday ta'sir qiladi, aynan shu kabi savollarga javob izlasak.

Axborot xuruji – bu odamlarning ongiga ta'sir qilish, ularni manipulyatsiya qilish va jamiyatda ma'lum bir fikrni shakllantirish maqsadida ataylab tarqatiladigan yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumotlar yig'indisidir.

Bu jarayon quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

Feyk (soxta) yangiliklar	Ijtimoiy tarmoqlar va turli veb-saytlarda haqiqatga zid, ammo ommaga ishonarli ko‘rinadigan yolg‘on xabarlarining tarqatilishi.
Manipulyativ kontent	Muayyan guruh yoki mafkura foydasiga mo‘ljallangan, haqiqatni buzib ko‘rsatadigan axborotlar.
Psixologik ta’sir	Ijtimoiy tarmoqlarda qo‘rquv, nafrat, vahima yoki umidsizlik uyg‘otuvchi ma’lumotlarning tarqatilishi orqali yoshlarning ruhiyatiga ta’sir qilish.

Aynan yoshlar nima uchun bu kabi to‘rlarga tez ilinadi. Bunga quyidagicha javob berish mumkin, yoshlar odatda yangilikka qiziquvchan, yangi texnologiyalarni tez o‘zlashtiradigan, shuningdek, hayotiy tajribasi nisbatan kamroq bo‘lgan qatlam sanaladi. Shuning uchun ular ba’zan axborot xurujlariga tez ishonib qolishlari mumkin.

Axborot xurujlarining oldini olish va undan himoyalaniish uchun quyidagi choralar muhim ahamiyatga ega:

1. Tahliliy tafakkurni rivojlantirish – Har qanday ma’lumotni tanqidiy tahlil qilish, uning manbasini tekshirish va qaysi manbalar ishonchli ekanligini aniqlash lozim.

2. Rasmiy va ishonchli manbalarga tayanish – Xabarlarini davlat rasmiy veb-saytlari, ilmiy manbalar va nufuzli axborot agentliklari orqali tasdiqlash kerak.

3. Axborot madaniyatini shakllantirish – Ota-onalar, o‘qituvchilar va jamiyat yoshlarni to‘g‘ri axborot olish va undan foydalanish bo‘yicha o‘rgatishi zarur.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, bugungi kunda axborot xurujlari yoshlarning ma’naviyati va fikrlashiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Soxta yangiliklar, manipulyativ kontent va psixologik hujumlar yoshlarni noto‘g‘ri yo‘lga boshlashi, ularning dunyoqarashiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Shu bois yoshlarning axborot madaniyatini oshirish, ularga tahliliy fikrlashni o‘rgatish va soxta axborotlarga qarshi immunitet hosil qilish juda muhim. Bu faqat individual emas, balki jamiyatning ham umumiy mas’uliyati hisoblanadi. Axborot xurujlariga qarshi kurashib, biz yoshlar ongini himoya qilishimiz va ularni mustaqil, to‘g‘ri fikrlaydigan shaxslar sifatida tarbiyalashimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

• Караев, С. Б. (2018). Современные пути совершенствования учебно-производственных комплексов, специализированных на профессиональной подготовке учащихся. In Психология и педагогика на современном этапе (pp. 30-36).

- Ernazarova, G. (2016). Development of training professional activity of vocational college students. Наука и Мир, 2(11), 100-102.
- Эрнazarовой, Г. О. (2017). Подготовка учащихся к профессиональной деятельности на основе акмеологического подхода. Традиционная и инновационная наука: история, современное состояние, перспективы: сборник статей, 115.